MINIATYURA SAN'ATINING NAFOSAT TARBIYASIDAGI ROLI. KAMOLIDDIN BEHZOD IJODI MISOLIDA

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi, Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: nabijumaboyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada miniatyura san'ati hamda uning o'ziga xos maktablari yoritib o'tilgan. Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi bilan tanishtirish, asarlarda vatanparvarlik va odamiylik fazilatlari, ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, estetik tarbiya, qadriyat, madaniy meros, badiiy meros, tasviriy san'at, amaliy san'at, miniatyura, san'at namunalari.

РОЛЬ ИСКУССТВА МИНИАТЮРЫ В ВОСПИТАНИИ УТОНЧЕННОСТИ. НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА КАМОЛИДДИНА БЕХЗАДА

Аннотация. в статье рассматривается искусство миниатюры и его специфические школы. Приводится информация о внедрении Камолиддином Бехзодом восточной живописи и художественного стиля, патриотизма и гуманитарных качеств, образования и воспитания в произведениях.

Ключевые слова: образование и воспитание, эстетическое воспитание, ценность, культурное наследие, художественное наследие, изобразительное искусство, прикладное искусство, миниатюра, образцы искусства.

THE ROLE OF MINIATURE ART IN THE EDUCATION OF ELEGANCE. ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF KAMOLIDDIN BEHZOD

Abstract. the article deals with the art of miniature and its specific schools. Information is provided on the introduction of oriental painting and artistic style, patriotism and humanitarian qualities, education and upbringing in works by Kamoliddin Behzod.

Keywords: education and upbringing, aesthetic education, value, cultural heritage, artistic heritage, fine arts, applied arts, miniature, art samples.

Kirish. Tasviriy san'atda nafosat tarbiyasi masalasi hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim tarbiyaning umumiy muammosi bilan bog'liq. Tasviriy san'at ijodida va idrokida intellektual asosiy qaror topshirishdan hech qachon voz

kechmaslik kerak. Tasviriy san’at mashg‘uloti, tasviriy san’atdan sinfdan tashqari ishlarni olib borish tarbiya berishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya haqida Shayx Sa’diy o‘zining “Guliston” asarida shunday deb yozgan edi: “Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach baxtli bo‘lolmaydi. Xo‘l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to‘g‘rilash mumkin”. Tarbiya haqidagi bu g‘oya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan bo‘lak meros bo‘lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir. Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanmog‘i lozim [1, 11-b.]. Bunda tasviriy va amaliy san’atning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Tasviriy san’atdan turli xil tadbirlarni amalga oshirish jarayonida ularning ongi va irodasini o‘stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘zining amalga oshirish shakliga egadir. Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub isloxotlar o‘quvchilarni insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, vafo, go‘zal hulq ruxida tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Chunki bunday xususiyatlar barkamol inson fazilatidir. Mamlakatimizdagi madaniy hayotning yuksalishi esa hozirgi kunda oliy ta’limda tayyorlanayotgan tasviriy san’at o‘qituvchisi va to‘garak rahbari mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv yurtlari oldiga o‘ta dolzarb muammolarni qo‘ymoqda. Bu muammolarni hal etish esa o‘z navbatida xozirgi zamon talablariga javob bera oladigan tasviriy san’at o‘qituvchilarini va to‘garak raxbarlarini tayyorlashni talab etadi.

***Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili*.**

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo‘lmasin va ularning diniy e’tiqodlari o‘ziga xos bo‘lganligidan qat’iy nazar biz bilan ularni bog‘lab turadigan nozik ko‘priklar bor. U ham bo‘lsa, ular yaratgan ajoyib san’at namunalari, ularning ma’naviy qadriyatlari, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining uzviy rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan tushunchalari va bilimlaridir. Shuning uchun ham zamonaviy tasviriy san’at o‘qituvchilarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o‘tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta’lim jarayonida nafaqat o‘tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Eng qadimgi tasviriy san’atdan farqli o‘laroq Markaziy Osiyo san’at maktabini Yunon san’ati bilan uyg‘unlashgan namunalaridan ko‘rish mumkin. Bu san’at maktabini Iskandar izi bo‘ylab shakllangan tasviriy san’at maktabi deb atashga asoslar bor. Ma’lumki, miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo‘shinlari Markaziy Osiyo hududlarini bosib olishgan. Yunon tili, madaniyati, san’ati, dini targ‘ib qilingan. Natijada yunonlashtirish vujudga kelgan [2, 104-b]. Mahalliy xalqlar tasviriy va amaliy san’ati bilan yunonilar san’ati o‘rtasida uyg‘unlashuv boshlangan, natijada yunon san’atiga xos haykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san’at namunalari paydo bo‘lgan.

Miniatyura san’atiga kelsak, bu san’at avvalo qog‘oz bilan bog‘liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog‘ozsozlik korxonalarini ko‘rar ekan, hayratga tushganligi haqida yozib qoldirgan [3, 19-b.]. Bunday ishlab chiqarish ustaxonalari Xiva, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda mavjud bo‘lgan. Xiva xoni Said

Muhammad o‘z saroyida bir qancha hattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to‘plagani ma’lum bo‘lib, u kitobga ixlos qo‘ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo‘lib, shu kutubxonada qo‘lyozmalar ko‘chirilar va bezatilar edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida ham mashhur kutubxona bo‘lib, unda juda ko‘p miqdorda kitoblar to‘plangan va hattotlar shug‘ullanganlar.

Tasviriy san’atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo‘lgan o‘qituvchi musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Agar san’at turlari orqali estetik tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta’lim sinadi va o‘z ta’sirini yo‘qotadi [4, 67-b.]. Bunday ta’lim-tarbiyaning mohiyatini ulug‘ mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedogoglardan Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Samarqandiy, Muzahhib, Xondamir, Behzod, Attor, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug‘bek, Abdulhay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va Abdulxay kabi rassomlar Samarqanda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘tmishdan qolgan va bizning zamonamizgacha etib kelgan tarixiy manba hamda obidalar ota-bobolarimizning juda qadim zamonlardan beri shu zaminda yashab, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganliklaridan darak beradi. Ular asrlar davomida o‘zlari to‘plagan hayotiy tajribalarni turli o‘yinlar, ertak va rivoyatlar, kuy va qo‘shiqlar, bayram va marosimlar, maqol va nasihatlar, afsona va dostonlar, noma va bitiklar vositasida kelajak avlodlarga, ya’ni bizga me’ros qoldirishgan [1, 11-b.]. Bu ma’naviy boyliklar ajdodlarimiz madaniyatining qanchalik yuksak darajada ekanini ko‘rsatadi. “Tarixiy-madaniy meros to‘g‘risida gap ketganida vorislik tamoyilini, uning milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rnini alohida ta’kidlash lozim” [5, 18-b.]. Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi deganda nafaqat ular tomonidan aytilgan fikr, yozilgan manba, balki ularning asarlariga oid materialldar ham badiiy ta’lim uchun tarixiy material sifatida qo‘llanishi mumkin. Zero, “Boburnoma”ga ishlangan miniatyuralar yuksak badiiy saviyada yaratilgan, yuqori darajadagi estetik qadriyatga daxldor manba sifatida dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanishi bugungi kun o‘quvchisi uchun nafaqat estetik zavq beruvchi manba, baliki milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalovchi vosita sifatida ham e’tiborlidir.

Mana shunday atoqli shaxslar yashab ijod etgan davrda, Xuroson o‘lkasi poytaxti Hirotda dunyoga kelgan Kamoliddin Behzod o‘z davrining buyuk rassom va miniatyurasozi, “Moniyi soniy” (“Sharq Rafaeli”) unvoniga sazovor bo‘lib, asr nodiri, XV asr ikkinchi yarmi Hirot miniatyura maktabi asoschisi sifatida shuhrat qozondi [6, 4-b.]. O‘zining betakror go‘zal san’ati bilan Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo‘shgan. Behzod salkam bir asr hayot kechirdi. Uning hayoti va ijodi Sharq halqlari, jumladan, O‘rta Osiyo halqlari madaniyatida muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘z ijodi davomida Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Yusuf Mulla, Rustam Ali, Shayxzoda Xursoniy, Shoh Muzaffar, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko‘plab shogirdlar

tayyorladi. Kamoliddin Behzod ijodi Hirot, Tabriz, Buxoro, Samarqand, Sheroz, Isfaxon, Istambul, Xindiston mo‘‘jaz rangtasvir maktablari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Behzodning asarlari yuksak qadrlanib, O‘zbekistondan tashqari, AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Frantsiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kutubxonalarida avaylab saqlanmoqda [7, 143-b.]. Toshkentdagi milliy rassomchilik va dizayn instituti Kamoliddin Behzod nomiga qo‘yilgan [8, 93 - b.]. Toshkentda Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga bag‘ishlangan muzey bor. Behzod ijodini o‘rganish faqatgina san’atnigina emas, balki o‘sha davr tarixini o‘rganish demakdir [7, 144-b.]. Buyuk musavvirning asarlari o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Bu esa bizda mana shunday ajdodlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanish, shu bilan birga zimmamizga ularga munosib voris bo‘lish mas’uliyatini yuklaydi.

***Tahlil va natijalar*.**

San’atshunoslik asoslari tasviriy va amaliy san’atdan barcha mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida o‘rganiladi. San’atshunoslik bo‘yicha mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarda san’at tarixi ancha keng va chuqur o‘rgatilsa amaliy tarzdagi rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, amaliy san’atning turlari bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklarda uning hajmi ma’lum miqdorda torayadi. Quyida tasviriy san’at tarixi bo‘yicha mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarining mazmuni bayon etiladi. Shuningdek, bolalar san’at asarlarining reproduktsiyalari va otkritkalarini, rassom, haykaltaroshlar haqida materiallar to‘plashga odatlantirish yaxshi natijalar beradi. Tasviriy san’atning tur va janrlari rassom va haykaltaroshlar haqida albom tayyorlashlari mumkin [9, 7-b.]. Bu ish ularni san’atga qiziqishini oshirishda, badiiy fikr doirasini kengaytirishda, badiiy tafakkurini o‘stirishda katta yordam beradi. San’at tarixiga doir mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘zbek mashhur san’atining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, jahonga mashhur o‘zbek rassomlari va ustalari, o‘zbek tasviriy va amaliy-bezak san’ati ustalarining yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari jahonning yirik va mashhur muzeylaridan o‘rin olganligi hamda o‘zbek xalqi bundan faxrlanishi haqida so‘zlab berishi lozim. Afrosiyob, Varahsha, Xalchayonda va boshqa yer ostidan topilgan shaharlar va uylar devorlariga ishlangan devoriy rasmlar, shuningdek haykallar nushalarini namoyish etish va Sharq uyg‘onish davrida Movarounnaxr miniatyura san’ati, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan tengi yo‘q asarlari IX-XV asrlarda O‘zbekiston me’morchiligining noyob asarlari haqida ma’lumot berish bolalarda san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Behzod qadimgi Xurosonning katta shaharlaridan birida temuriylar poytaxti Hirotda 1455-yilda tug‘iladi. Tarixiy asarlarda yozilishicha Behzod ota-onadan juda erta etim qolib taniqli Hirot hattoti va rassomi Mirak naqqosh Xurosoniy qo‘lida tarbiya oldi. Mirak naqqosh Xuroson hukmdori Sulton Husayn (1465-1506 yy.) saroyida shoh kutubxonasining boshqaruvchisi kitobdor vazifasida ishlagan [10]. Behzod musavvir sifatida tanilgach, 1487 yil Sulton Husayn farmoni bilan saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Tez orada bu joy o‘z davrining badiiy akademiyasiga aylanadi. Uni mutaxassislar “Nigor xonayi Behzod” yoki

“Behzod akademiyasi” deb atagan. Behzoddan rang-barang janrlarda ko‘plab asarlar qolgan. U Sharq tasviriy san’atini janr, mavzu, g‘oyaviy yo‘nalishi, tuzilishi, ranglar uyg‘unligi, shakl va voqealar mutanosibligi jihatdan yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tardi, daho allomalarning shoh asarlarini, tarix kitoblarini bezadi, zamonasidagi buyuk shaxslarning aksini – portretini yaratib, tasviriy san’atimiz tarixiga portret janrini olib kirgan [11]. Behzod o‘z ishlarida Sheroz, Tabriz va Hirot miniatyura maktablarining muvaffaqiyatlari ajoyib ravishda uyg‘unlashtiriladi.

Rassom o‘zining yoshlik yillarida ishlagan ilk asarlaridayoq xatni jiddiy kuzatuvchi mohir san’atkor ekanini ko‘rsatadi. Behzod illyustrasiya qilinadigan qo‘lyozmadan shunaqa syujetlarni tanlab oladiki, bu syujetlar uningcha hayotning turli lavhalarini, mavjudotini doimo harakatda ekanini ko‘rsatish lozim. Shungacha va shundan keyingi davrlarda yaratilgan kompozitsiyalarda Behzod uncha katta bo‘lmagan juda keskin harakat va katta kenglikni o‘zida mujassamlatirgan miniatyuralarni yaratish uchun alohida bir usulni qo‘llaydi, u figuralarni miniatyura ramkalari bilan kesib qo‘yadi va ushbu usul bilan tomoshabinning hayotida harakat davom etayotganining tasavvurini tug‘diradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga ishlangan “Xiva qal’asining qamal qilinishi” nomli asarida aniq detallarni ko‘rish mumkin. Behzodning masjid qurilishi tasvirlanayotgan asarida esa ishlarining borishini keng ko‘lamda ko‘rsatib bergan. Bu miniatyuralarga qarab turib, odam ish juda kizg‘in ketayotganini ko‘rish mumkin. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod jasoratini qanchalik kuylangan bo‘lsa, Behzod ham o‘z miniatyuralarida Hirot shahrini obod qilgan nomsiz ustalar va hunarmandlarni muhabbat bilan tasvirlaydi. Sa’diyning shahri O‘rta Sharqda unga teng keladigan shahar yo‘q edi. Hirot shahri me’morchiligiga masjidlarning salobatligi bilan madrasalarni, mehmonxonalar, shifoxonalar, hammomlarning barcha qurilish binolarining aniq qurilmalari uni bezab turgan naqshinkor koshinlari kishilarni hayratga solgan. Bu yerda miniatyura va hattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari ishlanardi. Sulton Husaynning zamondoshlari Jomiy, Navoiy, Mirxond va Xondamir chiroyli husnixat mualliflari hattot Sulton Ali, Mashhadiy Kamoliddin, Kamoliddin Behzod o‘sha paytlarda Hirotning gultojlari edilar. Sulton Husaynning o‘zi ham shoir bo‘lib, nafis san’atning nozik bilimdoni sifatida ijodkorlarga homiylik qilardi. Buyuk Behzodning shakllanishida Navoiy katta ta’sir ko‘rsatadi. Buyuk ustoz o‘zining mashhur musavvirlariga Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning marhamati va g‘amxo‘rligi tufayligina erishdi deydi tarixchi Xondamir. XV asrning 90-yillarida Sulton Husayn Bayqaro Behzodni o‘z kutubxonasiga boshliq qilib tayinlaydi. U Sharqning buyuk yozuvchisi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyurar edi. Sulton Husayn hattot o‘z bog‘ida Behzodga ijodxona qurdirgan. Uning ishidan zavqlanish uchun uni oldiga tez-tez kelib turar edi. Bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutganday bo‘lardi. 1537-yilda Sulton Husayn vafot etdi. Shayboniyxon Hirotni bosib oldi. Behzod Hirotda qolib o‘z ijodini davom ettirdi. Shayboniyxon ham bilimdon xukmdor bo‘lib rassomga alohida e’tibor beradi va unga o‘z portretini chizishni buyuradi. Shayboniyxon xalokatidan so‘ng 1510-yil Hirotni shoh Ismoil bosib oladi. Behzod boshqa bir hukmdor harakatiga o‘tishga majbur bo‘ladi va safaviylar poytaxti Tabrizga boradi. Shoh Ismoil Behzod ijodini yuqori baxolaydi.

1514-yilda Childiran yonidagi jangda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Shoh Ismoil qaytib kelib ularning ahvollarini so‘rattirgan. Bo‘ston asarida mashhur Doro cho‘pon miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik qoyalari ta’siri ostida yaratilgan. Bu miniatyurada qoyali tog‘lar, ba’zi joylar butalar bilan qoplangan yam-yashil o‘tloq, cho‘ponlar va otlar yorqin bo‘yoqlar ostida bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu asarida ham Behzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho‘pon bola kabi haqqoniy va hayotiy lavhalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, cho‘pon qomati juda ta’sirchan chiqqan. Muallif yoki bosh qahramon “portreti” ichki kechinmalarini tasvirlovchi sahnalar suhbat mavzusi beriladigan bo‘ldi. Avliyolar, payg‘ambarni tasvirlash mavzulari cheklana bordi. Jang, ov jarayonlari, falsafiy mavzularga munosabat bir muncha o‘zgaradi. Mustaqil peyzaj kompozitsiyalari yo‘qoladi. Ko‘p kishilik bazm manzaralari kam figurali soqiylar bilan almashinadi. Yangi kompozitsion echimlar, sxemalar paydo bo‘ladi. Keyingi davr qo‘lyozmalarida miniatyuraning O‘rta asr uslubiga pala-partish rioya qilishi va personajlarning tarkibiy harakteristikasiga alohida-alohida urg‘u berish sezilib turiladi.

Harakterli belgi sifatida me’moriy bezak tarzida Boburiylar davri oq marmar inshootlaridan nisbatan ilgarigi yolg‘iz daraxt yoki peyzash fonini yassi perspektiv qisqartmalarsiz tasvirlovchi Eron va O‘rta Osiyo usulidan foydalanishni ta’kidlash mumkin [12, 11-b.]. Masalan, o‘rganiladigan asar personajlarining o‘rganish jarayoni to‘garak qatnashchilari uchun samarali bo‘ladi. Faqat Sharq miniatyuralaridagi qahramonlarning o‘rganish jarayoni qator tarbiyaviy, pedagogik masalalarning echimini ochib berish va hal etish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Sharq miniatyura san’atida Kamoliddin Behzod va uning takrorlanmas badiiy tasviriy mahorat maktabi san’atdagi kamolot namunasi bo‘lgan bo‘lsa, Temuriylar davri ilm-fani, ayniqsa adabiyot va miniatyura san’ati yuksaklikka erishdi [13, 16-b.]. Umuman ilm-fan va madaniyatning oltin asri bo‘lib tarixga kirdi. Miniatyura san’ati asarlarini idrok etishda uning funksional vazifalari badiiy bezatilgan qo‘lyozma asarlarining tarkibiy qismi, ajralmas badiiy-grafik elementi sifatida qarash lozim. Bunday yondashish o‘quvchilarning bu durdona san’atdagi sintezni ilg‘ash, ularning hamohangligini ta’minlovchi omillarni aniqlash va tahlil kilish imkonini beradi. Jumladan, so‘z bilan tasvir birligidagi badiiy matn va badiiy tasvir sintezi, badiiy bezatilgan qo‘lyozma asarlarini yaratilishida turli kasb egalari – hattot, naqqosh, muzahhib, lovvoh va musavvirlarning ijodiy hamkorligining samarali yuksak badiiy kiymatga ega bo‘lgan, badiiy jihatdan mukammal bezatilgan qo‘lyozma asarlarini yaratilishini asosiy zamini ekanligi haqida taassurotga ega bo‘ladilar. Masalaga shu tariqa yondashish hattotlik badiiy naqqoshlik kabi miniatyura san’atiga aloqador bo‘lgan san’at turlaridan alohida mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoni berildi. Ma’lumki, miniatyura rangtasviri ma’lum davrlarda katta shuhrat qozondi. Uning shuhrati hozirgi davrda ham ko‘pgina Sharq va G‘arb sharqshunoslarining e’tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda. U o‘zining ishlanish uslubi, bezakdorligi bilan G‘arb san’atidan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham Sharq miniatyura maktabi asarlarini, uning namoyondalari faoliyatini o‘rganish tasviriy san’atdan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilar uchun faqat turli

san’at maktablarini bilishda ahamiyatli bo‘libgina qolmay, balki Sharq san’atining o‘ziga xos xususiyatlari o‘sha davrdagi xalq hayotini bilib olishga yordam beradi. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida Sharq miniatyura asarlarini o‘rganishda o‘qituvchi Behzod va uning miniatyura maktabiga alohida e’tibor berishi, uning shogirdlari hisoblanmish Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Muhammad, Muzaffar Ali, Rustam Ali, Mir Said Ali, Maxmud Muzaxxib, shuningdek, Muhammad Murod Samarqandiy, Sa’di Buxoriy, Muhammad Nodir Samarqandiy, Ahmad Kalla va boshqalarining hayoti va faoliyati haqida to‘xtalishi o‘quvchilarni san’atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Vohidova. Sharq mutafakkirlarining ta’limiy-axloqiy qarashlari. Oliy ta’lim. 2008. 8-son.
2. S. Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – T.: 1991.
3. Sh. K. Shoyoqubov. Zamonaviy O‘zbekiston miniatyurasi. – T:. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2006.
4. N. Jumaboyev. Sharq miniatyura san’atining estetik tarbiyadagi o‘rni. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali. 1-son. 2022. https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/46.
5. V. Qo‘chqorov. Ma’naviyat va milliy o‘zlikni anglash. – T.: Akademiya, 2008.
6. O. Usmonov, A. Madrahimov. Kamoliddin Behzod. – T.: 2000.
7. N. Jumaboyev, Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san’at uslubi va asarlari tahlili . “Oriental Art and Culture” ilmiy-uslubiy jurnali. 3-son. 2020. https://cyberleninka.ru/article/n/kamoliddin-be-zodning-shar-ona-tasviriy-sanat-uslubi-va-asarlari-ta-lili/viewer.
8. N. Jumaboyev. Sharq mutafakkirlarining ta’limiy-tarbiyaviy ilmiy merosini o‘rganishning zaruriyati. “UzBridge” elektron ilmiy-ommabop jurnali. 1-son. 2022. https://uzbridge.eyuf.uz/maqolalar/Jumaboev_N_2022_1_son.pdf.
9. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – T.: 2004.
10. Behzod Kamoliddin. A. Farg‘oniy nomidagi Farg‘ona viloyat axborot-kutubxona markazi. http://ferlibrary.uz/bezod_kamoliddin
11. B. To‘rayev., A. Boboyev. Fan taraqqiyotida movarounnahrlik ulamolarning o‘rni. – T.: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi. https://www.bukhari.uz/?p=18379
12. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi “San’at” jurnali. 5-son. 2010.
13. O. Usmonov. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T: “Fan”, 1977.